

**UDK: 556.113.3**

**AMU-BUXORO MASHINA KANALI SUVINING LOYQALIGI.**

*Qayumova Sarvinoz - "Gidrotexnik inshootlar va nasos stansiyalari"*

*kafedra stajyor-o'qituvchisi.*

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari*

*instituti" Milliy tadqiqot universiteti*

*Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti*

*Buxoro*

*O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amu-buxoro mashina kanalining loyqalik miqdori uning oqim rejimiga, to'yinish manbalariga, havzasining tuzilishiga va u qanday jinlardan tuzilganligiga ham bog'liq bo'ladi. 2021 yildan Olot Amu buxoro mashina kanalining loyqa oqiziq miqdori quyidagicha taqsimlangan: may, iyun-iyul oylarida eng ko'p loyqa oqiziq 340-360 g/m<sup>3</sup> bo'lib, eng kam oktabr oyida 120-180 g/m<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Kuz faslining birinchi oyidan boshlab, Kanal suvi loyqaligi yana kamaya boshlaydi bunga iqlimning sovishi ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Kanal, havza, loyqa, cho'kindi, oqiziq, o'zan, daryo.

**TURBIDITY OF AMU-BUKHARA MASHINE CANAL WATER.**

*Kayumova Sarvinoz- Trainee-teacher of the department "Hydrotechnical*

*structures and pumping stations"*

*Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National*

*Research University of "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural*

*Mechanization Engineers"*

*Bukhara*

*Uzbekistan*

**Annotation.** In this article, the amount of turbidity of the Amu-Bukhara machine channel depends on its flow regime, sources of saturation, the structure of the basin and what rocks it is made of. From 2021, the amount of cloudy discharge of the Olot Amu Bukhara car canal is distributed as follows: in May, June-July, the

most cloudy discharge is 340-360 g/m<sup>3</sup>, and the least in October is 120-180 g/m<sup>3</sup>. Starting from the first month of autumn, the turbidity of the Canal water begins to decrease again, which is affected by the cooling of the climate.

**Key words:** channel, basin, turbidity, sediment, flow, stream, river.

Amu-buxoro mashina kanalining har bir kub metr suvida 0,88 kg loyqa mavjud. Kanalning loyqalik miqdori uning oqim rejimiga, to'yinish manbalariga, havzasining tuzilishiga va u qanday jinlardan tuzilganligiga ham bog'liq bo'ladi. Kanal havzasi hududidagi gidrometeorologik postlarning malumotiga ko'ra, 2021 yildan Olot Amu buxoro mashina kanalining loyqa oqiziqalar miqdori quyidagicha taqsimlangan: may, iyun-iyul oylarida eng ko'p loyqa oqiziqalar 340-360 g/m<sup>3</sup> bo'lib, eng kam oktabr oyida 120-180 g/m<sup>3</sup> ni tashkil etadi. iyulda eng ko'p 480 g/m<sup>3</sup>, o'rtacha 300 g/m<sup>3</sup>, eng kam 160 g/m<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Kanal suvi aprel oyining ikkinchi yarmidan boshlab, tog'larning quyi qismidagi mavsumiy qorlarning erishi hisobiga ko'paya boshlaydi va iyun-iyullarda eng ko'p 600 g/m<sup>3</sup>, o'rtacha 420 g/m<sup>3</sup>, eng kam 200 g/m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi, iyun oyida esa, Kanal eng ko'p 740 g/m<sup>3</sup>, o'rtacha 610 g/m<sup>3</sup>, eng kam 500 g/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Iyun, iyul, avgust oylari esa, daryo suvi loyqaligi eng yuqori darajaga yetadi va bir xil 820 g/m<sup>3</sup>, o'rtacha 740-770 g/m<sup>3</sup>, eng kam 600-740 g/m<sup>3</sup> ni tashkil etadi.

Kuz faslining birinchi oyidan boshlab, Kanal suvi loyqaligi yana kamaya boshlaydi bunga iqlimning sovishi ta'sir ko'rsatadi. Sentabr oyida eng ko'p 720 g/m<sup>3</sup>, o'rtacha 640 g/m<sup>3</sup>, eng kam 620 g/m<sup>3</sup> ni, oktabr oyida eng ko'p 620 g/m<sup>3</sup>, o'rtacha 610 g/m<sup>3</sup>, eng kam 560 g/m<sup>3</sup> ni, noyabr oyida eng ko'p 600 g/m<sup>3</sup>, o'rtacha 540 g/m<sup>3</sup>, eng kam 520 g/m<sup>3</sup> ni, dekabr oylarida esa eng ko'p 640 g/m<sup>3</sup>, o'rtacha 510 g/m<sup>3</sup>, eng kam 480 g/m<sup>3</sup> loyqa oqiziqalarini tashkil qildi.


#### Tub cho'kindilarning fraksion tarkibi

Bo'limlar	Cho'kindilarning yirikligi (mm)					
	1-0,5	0,5-0,25	0,25-0,1	0,1-0,05	<0,05	do'r
Kerki	2,4	53,5	27,6	5,1	7,4	0,25
Ilchiq	-	45,0	35,0	12,0	8,0	0,21

Tuyamuyun	0,3	31,6	44,0	15,8	8,3	0,19
Chatli	-	15,8	17,7	25,0	41,5	0,12

Amudaryo oqiziqlari ikki turga bo‘linadi: o‘zan xosil qiluvchi oqiziqlar, yirikligi  $d > 0,01$  dan katta va tranzit  $d < 0,01$  mm li oqiziqqlarga bo‘linadi. O‘zan xosil qiluvchi oqiziqqlarning gidravlik yirikligi va tub yotqiziqqlarning o‘rtacha diametri oqim bo‘ylab pastga o‘zgarib boradi. Eng katta tezlik 4 m/s gacha, oqimning yuviladigan qirg‘oqqa keskin buriladigan uchastkalarida va qirg‘oqni himoya qiluvchi inshootlar oldida uchraydi. Maksimal chuqurlik 8-12 m gacha va qattiq jinsdan chiqish joylarida va deygish uchastkalarida uchraydi. Qirg‘oqni himoya qiluvchi inshoot bor joylarda chuqurlik 16-25 m gacha bo‘ladi.

Amu-Buxoro mashina kanaliga Amu-Daryodan 2021 yil davomida muallaq oqiziqqlarning uchastkalar bo‘yicha oylar davomida cho‘kkan miqdori to‘g‘risida m<sup>3</sup> ma’lumot diyagramasi.



**1-rasm Amu daryodan bosh inshootgacha oqiziqqlar diyagramasi**



**2-rasm. Amu-Buxoro kanalidagi zemsinaryatning loyqan chiqarib tashlashi**

**Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda Amu-Buxoro mashina kanalining loyqalik miqdori uning oqim rejimiga, to'yinish manbalariga, havzasining tuzilishiga va u qanday jinslardan tuzulganligiga ham bog'liq bo'ladi. Daryoda to'xtovsiz o'zan deformatsiyasi bo'lib turishi Suv toshqini paytida tezlashadi. Daryoning quyi oqimida 1 km uzunlikdagi uchastkasida bir sutkada 30 ming m<sup>3</sup> gacha gruntни yuvib, pastga qarab ko'chiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.R. Bakiev, A.A. Yangiev, N. Raxmatov. "Gidrotexnika inshootlari" o'quv qo'llanma. Toshkent, 2018.
2. Bakiyev M.R., Kaveshnikov N., Tursunov T., Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish. Toshkent, 2011 y.
3. Bakiev M.R., Kirillova Ye.I., Talipov Sh.G., Ernazarov N.Sh. «Эксплуатационная надежность и безопасность гидротехнических сооружений». Metodicheskoe posobie. Tashkent, TIIM, 2012 g.
4. Рахматов N. Правовые вопросы обеспечения безопасности ГТС на трансграничных водных объектах бассейна Сырдарии. "Ирригация ва мелиорация" jurnali, Toshkent, № 4 2017 yil.

5. Raxmatov N. Ma'lumotlar bazasini yaratish yo'lidagi Sirdaryo havzasi suv xo'jalik birlashmasining tajribasi. "Irrigatsiya va melioratsiya" jurnali, Toshkent, № 2 (12) 2018 yil

6. Bakiev M.R., Kirillova Ye.I., Yangiev A.A., Raxmatov N, Masharifov U.X. Разработка критериев безопасности речных водозаборных гидроузлов. Monografiya, Tashkent 2017 y.